

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
240 sahifa, iyun, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbiki Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Абдор Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherzov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalari boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Неъматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Ғанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna	



MADANIY FESTIVALLAR-TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna

TDIU "Turizm va mehmonxona biznesi"
kafedrası katta o'qituvchisi

<https://orcid.org/0000-0002-9195-9377>

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniy festivallarning turizmni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada xalqaro va milliy festivallar tahlil qilinib, ularning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy foydalari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, madaniy festival turizmining rivojlanish imkoniyatlari, mavjud muammolar va istiqbollar haqida ham fikr yuritilgan. Statistik ma'lumotlar, SWOT tahlil va O'zbekiston tajribasi asosida asosli xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: madaniy festival, turizm, iqtisodiy ta'sir, madaniy meros, festival turizmi, O'zbekiston.

Abstract: This article explores the role and importance of cultural festivals in the development of tourism. It analyzes both international and national festivals, highlighting their economic, cultural, and social benefits. The article also discusses the opportunities, challenges, and future prospects of festival tourism. Statistical data, SWOT analysis, and Uzbekistan's experience are used to support key findings and recommendations.

Keywords: cultural festival, tourism, economic impact, cultural heritage, festival tourism, Uzbekistan.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение культурных фестивалей в развитии туризма. Анализируются международные и национальные фестивали, раскрываются их экономические, культурные и социальные преимущества. Также рассматриваются перспективы развития фестивального туризма, существующие проблемы и пути их решения. Приводятся статистические данные, SWOT-анализ и опыт Узбекистана.

Ключевые слова: культурный фестиваль, туризм, экономическое воздействие, культурное наследие, фестиваль-ный туризм, Узбекистан.

KIRISH

Bugungi kunda turizm sohasi dunyo bo'ylab iqtisodiy o'sishning drayverlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu soha nafaqat dam olish yoki ko'ngilochar xizmatlar bilan cheklanmay, balki madaniy almashinuv, ijtimoiy integratsiya, iqtisodiy faollik va hududiy brendni rivojlantirishga xizmat qiladigan kompleks tizimga aylangan. Ayniqsa, madaniy festivallar zamonaviy turizmning strategik komponenti sifatida turli sohalar — madaniyat, iqtisodiyot, ta'lim, ijodkorlik va innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritmoqda.

Madaniy festivallar o'z mohiyatiga ko'ra, an'anaviy san'at, musiqa, adabiyot, milliy urf-odatlar va xalq hunarmandchiligi kabi boy merosni keng ommaga namoyon qilish vositasidir. Shu bilan birga, bunday tadbirlar xorijiy va mahalliy sayyohlar oqimini oshiradi, xizmatlar eksportini rag'batlantiradi, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ular orqali hududning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi kuchayadi, yangi ish o'rinlari vujudga keladi, logistika, transport va mehmonxona infratuzilmasi rivojlanadi.

Xususan, so'nggi yillarda xalqaro tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, turizm infratuzilmasini faqat moddiy obyektlar bilan emas, balki madaniy-g'oyaviy kontent orqali ham boyitish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, madaniy festivallar turizmni rivojlantirishda nafaqat vosita, balki strategik resurs sifatida qaralmoqda. Ular orqali hududiy identitet mustahkamlanadi, ijtimoiy birlashuv kuchayadi, davlatlararo madaniy diplomatiya rivojlanadi.

Mazkur maqolada madaniy festivallarning turizmni rivojlantirishdagi o'rni, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi, brendlashtirishdagi roli, shuningdek O'zbekistonda bu boradagi amaliy tajriba va istiqbolli yo'nalishlar atroflicha tahlil qilinadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasini rivojlantirishda madaniy festivallarni vosita sifatida tadqiq etishda bir qator olimlarning ilmiy ishlari ushbu mavzuning dolzarbligini va amaliy ahamiyatini ochib beradi. Xususan, Maxzuna X.G. tomonidan ishlab chiqilgan milliy turizm mahsulotlarining jozibadorligini oshirish strategiyasida hunarmandchilik orqali madaniy turizmni faollashtirish mexanizmlari keng yoritilgan. Muallif milliy festival va yarmarkalar orqali turistlar e'tiborini jalb etish, mahalliy mahsulotlarni brendlash va xizmatlar eksportini ko'paytirish usullarini tahlil qilgan.

Gulamjanovna M.K. o'zining maqolasida (2023) O'zbekistonning turizm salohiyatini rivojlantirish masalalarini ko'rib chiqib, madaniy tadbirlarning sayyohlarni jalb qilishdagi rolini tahlil qiladi. U madaniy tadbirlar orqali turizm mavsumini uzaytirish, regional iqtisodiy faollikni rag'batlantirish imkoniyatlariga e'tibor qaratgan.

Xushnazarova M.G. bir nechta ishlarida turizm sohasining ilmiy jihatlarini, xorijiy amaliyotlar, shuningdek, O'zbekistonda turizm xizmatlarini boshqarishdagi "bilimlar menejmenti" tizimi haqida fikr yuritadi (2020, 2022). U madaniy meros obyektlariga asoslangan festival turizmi orqali mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish muhimligini asoslagan.

Muallifning yana bir maqolasida (2023) Qoraqalpog'iston Respublikasidagi turizm yo'nalishlarining rivojlanishida madaniy komponentlarning, xususan, mahalliy an'anaviy hunarmandchilik mahsulotlarining roli alohida o'rganilgan. Bu yondashuv hududiy identitetni shakllantirish va turizmga barqarorlikni ta'minlash jihatdan muhimdir.

Yusupovna S.N. va Alisher ugli V.R. tomonidan yozilgan maqolalarda (2023) rekreatsion turizmni rivojlantirishda mobil texnologiyalar va ekskursiyalar turlari orqali sayyohlar tajribasini boyitish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Bu yondashuvlar madaniy festivallarda raqamli yechimlardan foydalanish orqali ularning ko'lamini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yakuniy manba sifatida Yusupovna S.N. tomonidan yozilgan so'nggi ilmiy maqolada (2025) O'zbekistonda rekreatsion turizm istiqbollari, xususan, sog'lomlashtirish, madaniy hordiq chiqarish va madaniy tadbirlar integratsiyasi orqali ichki va tashqi turizm oqimini diversifikatsiyalash masalalari o'rganilgan.

Mazkur adabiyotlar umumlashtirib aytganda, madaniy festivallarning turizmni rivojlantirishdagi roli — bu nafaqat mahalliy iqtisodiy faollikni kuchaytiruvchi, balki mintaqaning brendini shakllantiruvchi, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi va turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qiluvchi strategik omil sifatida qaralishini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekistonning turistik hududlarida o'tkazilgan so'rovnomalar, rasmiy statistik hisobotlar va amaliy festivallar tajribasidan to'plandi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlili, taqqoslama tahlil va deskriptiv statistik usullar yordamida tahlil qilindi hamda mavjud tendensiyalar asosida xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Madaniy festival - bu xalq san'ati, urf-odatlar, musiqa, raqs, ovqatlanish madaniyati, kiyim-kechak, hunarmandchilik yoki tarixiy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ommaviy tadbirdir. Ular ko'pincha bir necha kun davom etadi va keng turistik dastur bilan boyitiladi (ko'rgazmalar, konsertlar, ustaxonalar, yarmarkalar va boshqalar).

Festival turizmi ko'p qirrali ijtimoiy va iqtisodiy foydalarni taqdim etadi. Avvalo, u iqtisodiy jihatdan foydalidir, chunki sayyohlar festival paytida transport, mehmonxona, restoran, savdo va boshqa xizmatlardan faol foydalanadilar. Bu esa mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirib, kichik va o'rta bizneslar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, festival o'tkaziladigan hududda infratuzilmaning yaxshilanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi orqali hududiy rivojlanish ta'minlanadi. Bularning barchasi mahalliy aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Festival turizmi madaniy almashinuv uchun ham muhim maydon hisoblanadi. Xalqaro mehmonlar bilan yuzma-yuz muloqot jarayonida milliy urf-odatlar, san'at va qadriyatlar targ'ib qilinadi, turli xalqlar o'rtasida madaniy ko'priklar yaratiladi. Shu orqali festival nafaqat milliy merosni saqlash, balki uni global miqyosda tanitish vositasiga aylanadi. Buning ustiga, festival orqali shahar yoki viloyat o'zining turistik brendini shakllantira oladi. Masalan, "Buxoro – hunarmandlar shahri" yoki "Boysun – xalq ijodiyoti markazi" kabi konsepsiyalar hududning ijobiy imidjini mustahkamlaydi.

O'zbekistonda festival turizmi sohasida sezilarli tajriba to'plangan. Har yili mamlakatda bir qator yirik madaniy festivallar tashkil etiladi. Ulardan biri – Samarqand shahrida o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali bo'lib, u ko'plab xorijiy san'atkorlar va mehmonlarni o'ziga jalb etadi. Buxorodagi "Ipak va ziravorlar" festivali esa qadimiy hunarmandchilik, milliy taomlar va liboslar orqali Buxoro merosini jahon miqyosida targ'ib etadi. Navro'z esa butun O'zbekistonda keng nishonlanadigan umumxalq bayrami bo'lib, unda an'anaviy raqslar, kurash, osh tanlovlari va boshqa ko'plab madaniy tadbirlar o'tkaziladi. "Boysun bahori" fes-

tivali esa xalq og'zaki ijodi va qadimiy marosimlarga bag'ishlanib, YUNESKO tomonidan tan olingan noyob madaniy hodisa sifatida e'tirof etilgan.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, festival turizmi dunyoning ko'plab davlatlarida ham iqtisodiy va madaniy rivojlanish vositasi sifatida faol qo'llaniladi. Masalan, Ispaniyaning Tarragona shahrida o'tkaziladigan Castells festivali Kataloniya madaniyatining timsoli sifatida turizmga katta hissa qo'shadi. Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o'tkaziladigan mashhur Karnaval esa har yili yuz millionlab dollar daromad keltirib, butun dunyodan millionlab sayyohlarni jalb etadi. Yaponiyaning Kioto shahrida o'tkaziladigan Gion Matsuri esa an'anaviy yapon madaniyati va zamonaviy shahar turizmini birlashtirgan holda, nafaqat iqtisodiy, balki estetik va ma'naviy qiyamatga ham ega (1-jadval).

1-jadval: O'zbekiston hududi misolida madaniy festivallarni tashkil etishning SWOT tahlili

Ichki omillar	Tashqi omillar
S – Kuchli tomonlar • Boy tarixiy-madaniy meros • Urf-odatlar, milliy liboslar, xalq ijodi va hunarmandchilik an'analar • Mahalliy aholining mehmondo'stligi va merosga sadoqati • Davlat siyosiy irodasi (2021–2025 strategiyasi) • Festival tashkilotchiligi tajribasi (Navro'z, "Sharq taronalari" va b.)	O – Imkoniyatlar • YUNESKO va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik • Hunarmandlar, yoshlar va xotin-qizlar uchun ish o'rinlari yaratish • Festival turizmini mavsumdan tashqari rivojlantirish • Ijtimoiy tarmoqlar orqali global auditoriyani jalb qilish • Mahalliy va xorijiy investorlar uchun madaniy loyiha imkoniyatlari
W – Zaif tomonlar • Infratuzilma muammolari (yo'l, yotoq, tualet va b.) • Malakali kadrlar yetishmasligi • Marketing va PR ishlari sustligi • Moliyaviy resurslar tanqisligi • Raqamli texnologiyalar yetarli darajada joriy etilmagan	T – Tahdidlar • Ob-havo sharoitlari salbiy ta'siri • Xavfsizlik va sanitariya talablarini doimiy nazorat qilish zarurati • Festival mazmunlarining o'xshashligi, noyoblikning yo'qolishi • Madaniy tushunmovchiliklar (etika va qadriyatlar tafovuti) • Mahalliy aholi va sayyohlar o'rtasidagi madaniy ziddiyatlar

Hozirgi kunda madaniy festivallarni tashkil etish bo'yicha talablar ancha kengaygan bo'lib, ular endilikda zamonaviy texnologiyalar, xavfsizlik, inklyuzivlik va ekologik barqarorlik kabi mezonlarni ham o'z ichiga oladi. Madaniy festivallarni o'tkazishda eng avvalo rasmiy hujjatlar va ruxsatnomalar muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mahalliy hokimiyat, Ichki ishlar organlari, Sanitariya-epidemiologiya xizmati va Madaniyat vazirligi yoki unga qarashli tuzilmalardan ruxsat olinishi lozim. Agar festivalda xalqaro ishtirokchilar bo'lishi ko'zda tutilgan bo'lsa, Tashqi ishlar vazirligi yoki xalqaro aloqalar bo'yicha tegishli departament orqali akkreditatsiya va taklifnomalarni rasmiylashtirish talab etiladi.

Xavfsizlik va sog'liqni saqlash bo'yicha talablar ham ancha kuchaygan. Festival o'tkaziladigan joylar favqulodda chiqish yo'laklari, yong'inga qarshi vositalar va tez tibbiy yordam punktlari bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Ommaviy to'planish joylarida videokuzatuv tizimi, post-patrullar va xavfsizlik xizmatlari faoliyat yuritishi zarur. Ayniqsa, ovqatlanish hududlarida sanitariya normalariga qat'iy rioya qilinadi. Zarurat tug'ilganda, pandemiya xavfini kamaytirish maqsadida niqob rejimi, antiseptik vositalar, ijtimoiy masofa va gigiyena talablari joriy etiladi.

Texnik va texnologik infratuzilma ham festival muvaffaqiyatining ajralmas qismidir. Sahnalar, yoritish va tovush uskunlari professional darajada o'rnatilishi kerak. Elektr ta'minoti, suv, mobil aloqa tizimlari uzluksiz ishlashi ta'minlanadi. Zamonaviy festivalarda raqamli xizmatlar – onlayn chiptalar, QR-gidlar, elektron navbatlar va maxsus mobil ilovalar keng qo'llanilishi zarur.

Festival mehmonlari uchun maksimal qulayliklar yaratish dolzarb vazifalardan biridir. Festival hududida yo'nalish belgilar, axborot stendlari, gidlar yoki tarjimonlar, birinchi tibbiy yordam punktlari va toza tualetlar mavjud bo'lishi lozim. Shuningdek, mehmonxonalar, ovqatlanish joylari, transport va avtoturargohlar yaqin



masofada joylashgan bo'lishi kerak. Nogironlar, bolalar va keksa yoshdagi mehmonlar uchun panduslar, aravachalar va alohida xizmatlar kabi inklyuziv sharoitlar yaratilishi shart.

Axborot va reklama masalasi ham festivalning muvaffaqiyatida muhim o'rin tutadi. Festivalga tayyorgarlik, dastur va faoliyatlar haqida ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy veb-saytlar va OAV orqali doimiy axborot berib boriladi. Ishtirokchilar ro'yxati, tadbirlar jadvali, xaritalar va boshqa muhim ma'lumotlar ochiq va tizimli tarzda e'lon qilinadi.

Shuningdek, ekologik va ijtimoiy javobgarlik tamoyillari festival tashkilotchiligi uchun zaruriy mezonga aylangan. Festival hududida chiqindilarni ajratib yig'ish, toza suv ta'minoti, havo sifati va shovqin nazorati muhim bo'lib, atrof-muhitga zarar yetkazmaslikka alohida e'tibor qaratiladi. Mahalliy aholining manfaatlari inobatga olinadi, ayniqsa mahalliy tadbirkorlar va hunarmandlarga ustuvorlik berilishi festivalning ijtimoiy ta'sirini kuchaytiradi.

Madaniy festivallar endilikda oddiy bayram emas, balki keng ko'lamli, yuqori darajada rejalashtirilgan, xavfsizlik va texnologik jihatlar bilan to'liq ta'minlangan, madaniy uyg'unlik va barqarorlik tamoyillariga asoslangan yirik ijtimoiy-iqtisodiy hodisaga aylangan. Ular turizm, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarida muhim o'sishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, butunjahon madaniy turizm bozori 2023-yilda 6,52 milliard dollarni tashkil etgan va 2024–2031-yillarda yiliga 11,2 foizlik o'sish sur'ati bilan 15,23 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Film festivallariga to'xtaladigan bo'lsak, Kann kinofestivali Fransiya iqtisodiyotiga 200 million yevro miqdorida daromad keltiradi. Umuman olganda, global film sanoatining 2027-yilgacha bozor qiymati 149,9 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda.

Festival turizmi sohasida eng yirik tashriflar misollarida Edinburgh Festival Fringe har yili 3 milliondan ortiq mehmonni jalb etadi va Buyuk Britaniya iqtisodiyotiga 200 million funt sterling daromad keltiradi. Oktoberfest (Myunxen) 16 kun davomida 6 millionga yaqin tashrif buyuruvchi qabul qiladi va 1,2 milliard yevro iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi. Rio-de-Janeyro Karnavali esa har yili 5 milliondan ortiq sayyohni jalb qilib, 1 milliard dollarlik iqtisodiy foyda keltiradi.

Tashrifchilarning festival xarajatlariga oid statistikalar shuni ko'rsatadiki, har bir kishi o'rtacha 207 dollar sarflaydi, ularning 64 foizi asosan ovqat va ichimliklar uchun ko'proq mablag' ajratadi. Festivalga sarflangan har bir 1 dollar sarmoya iqtisodiy barqarorlikda 3,5 dollar miqdorida effekt beradi. Bu esa festivalni nafaqat madaniy, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali mexanizm sifatida tasdiqlaydi.

Yaqin va uzoq mintaqalardagi misollardan Vivid Sydney festivali 2025-yil ilk haftasida 1,2 milliondan ortiq tashrifchiga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, Winnipegdagi Folklorama ikki hafta davomida 168 mingdan ortiq odamni jalb etib, umumiy hisobda 400 mingdan ziyod tashrif amalga oshirilgan va 14,7 million dollarlik iqtisodiy ta'sir qayd etilgan. Malayziyadagi George Town Festival 2015-yilda 250 ming mehmonni qabul qilgan. Vetnamning Da Nang shahrida har bir festival 1 milliondan ortiq ishtirokchini jalb qiladi va yil davomida 20–30 ta festival o'tkaziladi. Filippindagi Dinagyang festivali esa har yili 1–2 million odam ishtirokida diniy-madaniy an'analarni keng targ'ib etadi. Marokashning Essaouira shahrida o'tkaziladigan Gnawa festivali esa 4 kun ichida yarim million mehmonni o'ziga jalb etadi.

Ushbu statistik ma'lumotlar madaniy festivallarning jahon miqyosida milliardlab dollar iqtisodiy foyda keltirishi, millionlab odamlarni jalb qilishi, ichki turizmni faollashtirishi, mahalliy biznes va innovatsiyalarni rag'batlantirishi, ish o'rinlari yaratishi va umuman olganda, barqaror iqtisodiy rivojlanishga kuchli turtki bo'lishini yaqqol ko'rsatib turibdi. Festival ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlar esa turar joy, oziq-ovqat, transport va ijodiy mahsulotlar sohalarini jonlantirib, mahalliy iqtisodiyotga sezilarli daromad olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Madaniy festivallar - bu turizmni rag'batlantirish, milliy qadriyatlarni saqlash va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda samarali vositadir. O'zbekiston uchun bu yo'nalish strategik ahamiyat kasb etadi, chunki boy madaniy meros, hunarmandchilik va urf-odatlar festivallar orqali xalqaro maydonga olib chiqilishi mumkin. Kelajakda bunday tadbirlarni kengroq miqyosda tashkil etish, ularni raqamlashtirish va xalqaro reklama kampaniyalariga qo'shish orqali turizm salohiyatimizni sezilarli darajada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati:

1. Махзуна Х. Г. Strategy for Increasing the Attractiveness of National Tourism Products (In A Basis Of Craftsmanship)[Стратегия повышения привлекательности национальных туристических продуктов (на основе ремесленничества)] //Молодой специалист. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 24-27.
2. Gulamjanovna M. K. Current Issues Of Tourism Potential Of Uzbekistan And Its Development //Scientific Aspects And Trends In The Field Of Scientific Research. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 342-346.
3. Хушназарова М. Г. Туристское образования и проведение научных исследований за рубежом //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.



4. Хушназарова М. Г. и др. Краткий обзор истории Азиатского города Самарканд //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 835-842.
5. Хушназарова М. Г. «УПРАВЛЕНИЯ ЗНАНИЯМИ» В ИНДУСТРИИ ТУРИЗМА //Экономика и социум. – 2020. – №. 12-2 (79). – С. 390-394.
6. Xushnazarova M. Qoraqalpoqiston Respublikasida turizmni rivojlanish yo 'llari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – Т. 1. – №. maxsus son.
7. Xushnazarova M. G. TURIZM SEKTORIDA MILLIY HUNARMADCHILIK MAHSULOTLARINING RIVOJLANISHINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 126-131.
8. Yusupovna S. N., Alisher ugli V. R. Ways of Effective Using of Mobile Technologies in the Development of Recreational Tourism //International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. – Cham : Springer Nature Switzerland, 2023. – С. 12-20.
9. Yusupovna S. N. TYPES OF EXCURSIONS AND THEIR IMPACT ON RECREATIONAL TOURISM //TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR. – 2025. – Т. 1. – №. 7. – С. 119-122.
10. Yusupovna S. N. PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF RECREATIONAL TOURISM IN UZBEKISTAN // GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – С. 272.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100